

TALABALARING IJTIMOIY MOSLASHUVNI SHAKLLANTIRISHGA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Inomova Maxliyo Yusuf Qizi

JDPU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 4 bosqich talabasi

G'afurjonova Nodira

Annotatsiya: Maqollarni hayot qomusi, xalq og'zaki ensiklopediyasi, o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi. Shuningdek, maqollar o'z ijodkori bo'lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og'zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, nutq, nutq turlari, tarbiya turlari, axloqiy tarbiya, maqol, xalq og'zaki ijodi.

Аннотация: Пословицы можно назвать энциклопедией жизни, народной энциклопедией, своеобразной художественно-исторической летописью. Они обостряют ум людей, делают их речь ясной и выразительной, учат выбирать правильный жизненный путь, правильно решать жизненные загадки и проблемы. Также очень древними являются пословицы как мельчайшие образцы устного творчества, обобщающие мировоззренческий, культурный, бытовой и мыслительный клад людей, их создавших.

Ключевые слова: дошкольное воспитание, речь, виды речи, виды воспитания, нравственное воспитание, пословица, фольклор.

Annotation: Proverbs can be called an encyclopedia of life, a folk encyclopedia, a kind of artistic and historical chronicle. They sharpen people's minds, make their speech clear and expressive, teach them to choose the right path in life, to solve life's riddles and problems correctly. Proverbs are also very ancient as the smallest examples of oral creativity, summarizing the worldview, cultural, everyday and mental treasure of the people who created them.

Key words: preschool education, speech, types of speech, types of education, moral education, proverb, folklore.

Muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv jarayonida bolaga nisbatan individual yondoshuvning muhimligini ajratib ko'rsatamiz. Bola shaxsi o'rabi turgan

voqelik haqida bilimlarni to'plashga, ijtimoiy his-tuyg'ularni rivojlantirishga, narsalar olamiga, ijtimoiy olamga va o'ziga nisbatan to'g'ri munosabatning yuzaga kelishiga yordam beruvchi faoliyatda shakllanadi.

Bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishda nutqni o'zlashtirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olib, mакtabgacha ta'lif muassasalarida mashg'ulotlarda tizimli yondashuv asosida o'qitish tizimi o'rnatilgan. Tizim avvalo quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Mакtabgacha ta'lif muassasalarida mashg'ulotlarda ketma-ket ravishda o'qitish tizimi.



maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tushunarli bo'lgan nutq mazmunini tanlab olish va uni uslubiy jihatdan ta'minlash;

nutqni o'zlashtirishda ustuvor yo'nalishlarni ajratib olish (lug'atda – so'zning ma'noviy jihatida ishlash, grammatikada – tildagi umumlashtirishlarni shakllantirish, monologik nutqda – turli xil ravon fikr bildirishning tarkibiy tuzilishi haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish);

nutq ustida ishslashning har xil bo'limlari o'rtasidagi o'zaro aloqaning tarkibiy tuzilishini aniqlash va har bir yosh bosqichida bu tuzilishni o'zgartirish;

Mакtabgacha ta'lif muassasalarida mashg'ulotlarda ketma-ket ravishda o'qitish tizimi.

Talabalarning bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bosqichlari quyidagilardir:

Talabalarning bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bosqichlari

№	Bosqichlar	Mazmuni
1	Korreksion	Tuzatish, ta'lif berish, tarbiyalash vazifalarining birligi bo'yicha tayyorgarlik Umum ta'lif mashg'ulotlari va kun tartibi jihatlarining tuzatishga qaratilganligi bo'yicha tayyorgarlik
2	Tashkiliy	Ishlarning rivojlantiruvchi xususiyati va bola shaxsining xislatlarini shakllantirish bo'yicha tayyorgarlik
		Maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhan rivojlanish imkoniyatlarini iloji boricha to'liq aniqlash va ulardan foydalanish bo'yicha tayyorgarlik
		Bolalarda mashg'ulotlarga qiziqishni, bilish faolligi va mustaqilligini tarbiyalash. Bolalarning shaxsiy tajribasiga tayanish bo'yicha tayyorgarlik
		Har bir mashg'ulotda yutuqqa erishishda bolalarning bilish faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha tayyorgarlik
3	Faoliyatli	Bolalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish, diqqat va xotirani rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalami har tomonlama va muvaffaqiyatlari o'qitish bo'yicha tayyorgarlik
		Maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishi kompleks tashxislash asosida o'qitishni individuallashtirish va darajalash bo'yicha tayyorgarlik
		O'qitushda izchillik hamda shakllangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash bo'yicha tayyorgarlik
		Faoliyatidagi usullar hamda didaktik materialning xilma-xilligi va variativligi bo'yicha tayyorgarlik
		Faol yondoshuv tamoyilini qo'llash, ta'limiylarini tuzatish maqsadlarida faoliyatning har xil turlaridan, ayniqsa yetakchi turidan keng foydalanish bo'yicha tayyorgarlik

Talabalarning bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha pyedagogik sharoitlar psixologik-pedagogik ta'sirlar, ta'lif muhiti, gumanitar ta'lif-tarbiya jarayoni, ijtimoiy-madaniy yo'nalganlik, bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga tayyorgarlikning uzuksizligini ta'minlashi lozim.

Maktabgacha yoshdagilarni tarbiyalash va o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish pedagoglar uchun eng dolzarb va murakkab masaladir. Mashg'ulotlarni texnologik jihatdan tuzish va modellashtirish, ularni yetakchi faoliyat turi bo'lgan o'yinda moslashtirish ishning tashkiliy negizini yaratadi, foydalanilgan uslub va usullarning samaradorligini belgilaydi. Maktabgacha bo'lgan yosh – bu o'yin yoshidir. Ular bir-biri bilan muloqot qilishga o'r ganadi, o'yinda bolaning nutqi rivojlanadi.

F.I.Yuldashevaning ta'kidlashicha, rolli o'yinlar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda quyidagilarga ahamiyat qaratiladi:

- rolli o'yinlarni tashkil etish;
- hayotiy vaziyatlarni shakllantirish;
- talabalar mustaqilligini rivojlantirish;
- o'yinda talabalarning o'z nuqtai nazarlarini aks yettirishi;
- o'zaro munosabatlarni shakllantirish[1].

Y.O.Smirnova ta'kidlashicha, bu yoshda bolada hurmatlanishga, tan olinishga ehtiyoj vujudga keladi. Aynan mana shu ehtiyoj bolani muloqotga undaydi [2].

O'yin – bu bolaning o'z ustida ishlashi. O'yin faoliyatining rivojlanishi bolalar bog'chasida bola hayotini tashkil etishning ajralmas qismiga aylandi.

O‘yinlarning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini ta’minlash uchun faqat o‘yinchoqlar emas, tegishli jism-makon muhiti ham zarur bo‘ladi.

Ijtimoiy moslashuv asosida maktabgacha bo‘lgan yoshda nutqning bevosita amaliy tajribadan ajralishi yuz beradi. Nutqning rejalashtiruvchi vazifasi paydo bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bo‘lgan rolli o‘yinlarda nutqning yangi turlari ham paydo bo‘ladi: o‘yin ishtirokchilariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi nutq, kattalarga ular bilan muloqot doirasidan tashqari vaziyatlardagi taassurotlari haqida hikoya qiladigan xabar beruvchi nutq.

Katta maktabgacha yoshda bolalar suhbatda faol ishtirok etib, savollarga yetarli darajada to‘liq va aniq javob bera oladi. Boshqalarning javoblarini to‘ldiradi va tuzatadi, o‘rnida e’tiroz bildiradi, savollarini ifodalay oladi. Bolalarning dialogi hamkorlikda bajariladigan vazifalar murakkabligiga bog‘liq bo‘ladi.

Bolalarning nutqini imkoni boricha faollashtirish uchun pedagoglar bolalarni muayyan mavzuda suhbatlashishga jalb etish va ularga kattalar qo‘yadigan bir qator savollar bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishga imkon berish maqsadini ko‘zlovchi mashg‘ulotlar va o‘yin-mashqlar o‘tkazadilar. O‘yin-mashqlarda bolalar o‘zlariga qaysidir rollarni oladi, lekin ularni o‘ynamaydi, balki faqat gapirib beradi.

Olingan taassurotlarni o‘zlashtirishda yordam beruvchi faol taqlidiy o‘yin muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘yin – bolalarning o‘zlari yashayotgan va o‘zgartirish burchlari bo‘lgan dunyoni bilishga xizmat qiladi.

Talabalar bolalarning o‘yini vujudga kelishi va yuz berishi uchun sharoit yaratishga doir bilimlarni qo‘llaydilar. Bu yoshda tarbiyachilar o‘g‘il bolalar va qiz bolalarning jinsiga ko‘ra rollarda ijtimoiylashuviga ko‘maklashadilar, ya’ni o‘g‘il bolalar uchun ham, qiz bolalar uchun ham o‘yinlar tashkil qilib, tegishli atributlarni, o‘yinchoqlarni tanlash imkonini ta’minlaydilar. A.S. Makarenko[3] fikricha: “O‘yin va ish o‘rtasida ko‘pchilik o‘ylaganidek katta farq yo‘q. Yaxshi o‘yin yaxshi ishga o‘xshaydi, yomon o‘yin yomon ishga o‘xshaydi. O‘yin bolaga quvonch keltiradi. Bu yoki ijod quvonchi, yoki g‘alaba quvonchi, yoki estetik quvonch – sifat quvonchi. Yaxshi ish ham xuddi shunaqa quvonch keltiradi, bu yerda to‘liq o‘xhashlik mavjud”. Katta maktabgacha yoshda tarbiyachilar o‘yinlarni tanlashda mustaqillikni rag‘batlantiradilar, syujetni ochib berishda yordam ko‘rsatadilar. O‘yinlar bolalarning qiziqishlari va istaklariga qarab tanlanadi. Nutqni rivojlantirish uchun ishda xalq og‘zaki ijodining kichik shakllari ishlatiladi: maqollar, matallar, topishmoqlar, alla va xalq qo‘sishchalari, aytishuvlar, hazil-mutoyibalar va h.k.

Xalq qo'shiqchalari, laparlar bolalar nutqining rivojlanishiga ta'siri shubhasizdir. Folklorning kichik shakllari yordamida nutqni rivojlantirish uslubiyotining barcha vazifalarini hal etish mumkin. Shuning uchun mактабгача та'lim muassasalari katta mактабгача yoshdagi bolalar nutqini rivojlanishiga borasidagi ishlar tizimida kichik folklor shakllariga alohida e'tibor qaratadi.

Bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirish davomida mashg'ulotlar o'tkazish nutqni o'stirishga, bolalarning atrof muhit, unda odamning o'mni, odamning atrof muhit bilan o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga qaratilgan rivojlantiruvchi topshirqlar tizimini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Mashg'ulotlarning shakli va turi har xil bo'lishi mumkin: didaktik o'yin, harakatchan o'yin, syujetli-rolli o'yin, qoidalgi o'yin, sahnalashtirilgan o'yin va boshqalar; mashg'ulot-sayohat, mashg'ulot-sayr, mashg'ulot-ertak, mashg'ulot-syurpriz, mashg'ulot-tadqiqot va boshqalar. Pedagog va mактабгача yoshdagi bolaning sanab o'tilgan mashg'ulot shakllari va turlarida birgalikdagi faoliyati nutqni rivojlanishga yordam beradi va uning ijtimoiy moslashuvi uchun shart-sharoitlarni yaratadi.

Didaktik materiallar: rolli o'yinlar, topishmoqlar, xalq qo'shiqlari, laparlar, hikoyalarni qo'llashda didaktik vositalardan ko'rgazmali quollar, video va audio yozuvlardan foydalaniildi.

Talabalarning bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashganligi motivation-qadriyatli, biliшhga oid, operasion va refleksiv baholash mozonlari asosida baholandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Yuldasheva F.I. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining pedagogik kasbiy kompetentligini rivojlanishning didaktik imkoniyatlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Toshkent-2022y.

2. Смирнова Е.О. Особенности общения с дошкольниками: учебное пособие для студ. сред. учеб. заведений. - М.: Академия, 2000. - 160с.

3. Макаренко А.С. – человек, педагог, ученый, писатель: Россия, Урал: материалы 10-х Всероссийских Макаренковских студенческих педагогических чтений / под ред. В.С. Третьяковой. Екатеринбург: «Раритет», 2013. 298 с.

4. Ушакова, О. С. Развитие речи дошкольника. Детская речь – ее истоки и первые шаги в развитии [Текст] / О. С. Ушакова, Т. Н.Ушакова. – М.: Психологический журнал, 1999. – 69 с.

5. Тарасова Т. Мальчик - пальчик, где ты был? (о роли игр-забав в жизни дошкольника) // Дошкольное воспитание, 1995. -№ 12 - С. 59-62.